



## ZAMONAVIY TURIZM INDUSTRIYASI ASOSLARI

*Ishanxodjaeva Dildora Aleksandrovna,*

*Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti*

*Tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro aloqalar direktori*

*E-mail: dishankhodjaeva@mdis.uz*

*ORCID: 0000-0002-3997-7412*

## FUNDAMENTALS OF MODERN TOURISM INDUSTRY

*Ishanxodjayeva Dildora Aleksandrovna,*

*Singapore Management Development Institute in Tashkent*

*Director of Research, Innovations and International Relations*

*E-mail: dishankhodjaeva@mdis.uz*

*ORCID: 0000-0002-3997-7412*

### **JEL Classification: P38, Z40**

**Annotatsiya:** Turizm, bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biri sanaladi. Shu boisdan, dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu maqolada mamalakatimizda turizm sohasining rivojlanish asoslari va bugungi kundagi holati tahlil etilgan, shuningdek rivojlantirish tendensiyalari yoritilgan.

**Abstract.** Tourism is one of the most important economic sectors today. Therefore, a number of measures are being implemented by many countries of the world to further develop this industry, to create relevant infrastructure at the level of world standards, and to increase the flow of tourists. This article analyzes the basis of the development of the tourism industry in our country and its current state, as well as the development trends.

**Kalit so'zlar:** turizm, tarix, ta'lim, xizmat ko'rsatish, meros, tadbirkorlik, davlat xususiy sherikchiligi, sayohat.

**Key words:** tourism, history, education, service, heritage,

entrepreneurship, public-private partnership, travel.

**Kirish.** Zamonaviy turizm industriyasi tarixiy, ta'lim, madaniy, ishbilarmonlik va xizmat ko'rsatish sohalarini o'zida mujassam etgan ko'p qirrali faoliyatdir, shuning uchun turizm darajasi va uning rentabelligi bir qator omillarga bog'liq. Turizm jahon iqtisodiyotining bir tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi, ko'tarilish va pasayishlari ham globallashuv jarayonlarining intensivligiga qarab o'zgarib turadi. Shuning uchun ham, birinchi navbatda, ushbu masalaning xalqaro miqyosdagi jihatiga e'tibor qaratish lozim. BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda sayohat qiluvchi turistlar soni 1,4 milliardni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 6 foizga ko'paygan. 2019 yilda esa sayyohlar soni 1,5 milliardga yetgan. 2019 yilda jahon yalpi ichki mahsulotida turizm va sayyohlikning umumiy hissasi esa qariyb 9 170 milliard dollarni tashkil qilgan. Yuqoridagi raqamlar odamlarning yildan-yilga sayohatga bo'lgan qiziqishi, talablarining ortib borayotganiga yaqqol misoldir. Umuman, turizm iqtisodiy foyda keltirishdan tashqari, aholining

dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, dunyoning turli davlatlari va mintaqalari vakillari o'rtasida yaqin aloqalarni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

### **Material va metod.**

Turizmni nazariy va uslubiy jihatdan tushunish, turizm jarayonining barcha subyektlariga xos bo'lishi kerak bo'lgan "turistik ong"ni shakllantirish davrning dolzarb talabidir, chunki bu hodisa XX-XXI asrlarda yuzaga kelgan, global jarayon bo'lib, zamonaviy sivilizatsiyaga sezilarli tasir ko'rsatadigan kuchli hodisalardan biridir. Ushbu tasirning oqibatlari qanday bo'ladi - ijobiymi yoki buzg'unchimi - ijtimoiy faylasuflar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, geograflar, tarixchilar, mintaqashunoslar, siyosatshunoslar, madaniyatshunoslar, turizm bilan qandaydir bog'liq bo'lgan ekologlar va boshqalarni bahslashishga chaqiradi. Turizmning ijtimoiy hodisa, muayyan ijtimoiy institut va tarmoq sifatida mohiyatini oydinlashtirganda uning ijtimoiy-antropologik va madaniy ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Turizmologiyani sayohatning chuqur ma'nosini, inson hayotining muhim yo'lini, sayohatning "logotiplarini" ochish, shaxsning o'zini o'zi anglashi sifatida tushunish fanning tuzilishini, uning arxitektonikasini, konseptual xususiyatlarini belgilaydi. Aholini turizm sohasidagi faoliyatga keng miqyosda jalb qilish ularning malakali tayyorgarligini taqozo etadi. Professional xodimlarning mavjudligi turizm biznesining barcha tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli ishlashi va takomillashtirilishining kalitidir. Ko'pgina mamlakatlarda professional turistlarni tayyorlash kerakli darajada amalga oshirilmoqda. Kasblar klassifikatorida "turizmolog" ilmiy mutaxassisligi kabi kasbning ta'rifi tubdan yangidir. Bunday mutaxassislarni

tayyorlashni tegishli nazariy ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, buning asosi esa turizm fani – Turizmologiyani egallashdir.


**Natija.** O'zbekistonda turizmning rivojlanish darajasi bugungi kunda jahon sivilizatsiyasi mulki bo'lgan boy madaniy-tarixiy merosga to'g'ri kelmasligi aniq. Turizmni kelgusida rivojlantirish uchun mavjud salohiyatdan samarali foydalanish xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish uchun harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin, bir turistga xizmat ko'rsatish qabul qiluvchi davlatning 4-7 nafar xizmat ko'rsatuvchi xodimlarini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi. Natijada, 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Respublikaga turistlarning asosiy oqimi qo'shni davlatlardan to'g'ri keladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda olib borilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizga tashrif buyurishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- qarindoshlarni ziyorat qilish;
- tibbiy turizm;
- ziyorat turizmi.

2023-yil 29-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizning turizm salohiyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi, unda davlatimiz rahbari tomonidan qator vazifalar belgilab berildi. Xususan, sayohatlar uchun yo'l infratuzilmasi muhimligi ta'kidlandi. Ammo vaqt o'tishi bilan mashinalar soni ortib bormoqda. Misol uchun, besh yil avval Toshkent-Samarqand yo'nalishi bo'ylab 25 ming avtomobil qatnagan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 35 mingga yetdi. Shu munosabat bilan sayohat vaqti ham oshdi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz shaharlari o'rtasida temir yo'l va havo qatnovlari chastotasini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

**“Orzu Medical” tibbiyot muassasida tibbiy yordam olgan xorijlik bemorlar soni va geografiyasi - Tibbiyot klinikalari»<sup>1</sup>**

No	Davlatlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	Jami
1.	Qozog'iston	630	884	667	204	540	978	3903
2.	Qirg'iziston		2	1		15	42	60
3.	Tojikiston		1	6	3	27	51	88
4.	Rossiya	6	3	3		12	32	56
5.	Germaniya	1						1
6.	Arab Amirliklari	1						1
		6638	8887	707	203	597	1103	4109



**1-rasm . O‘zbekistonda ichki turizm (ming kishi)<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Angren-Pop temir yo'l liniyasining ishga tushirilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Xiva shaharlariga elektrlashtirilgan tezyurar poyezd liniyalari hamda berilgan imtiyozlar ichki turizm xizmatlari hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. 2022-yilda "O'zbekiston bo'ylab sayohat" dasturi doirasida ichki turizm 11435,5 million kishini tashkil etdi. (reja 10,0 mln. kishi), 2021 yilga nisbatan 1,9 marta oshgan (1-rasm).

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini 2019-2025-yillarda rivojlantirish maqsadlari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida "Turizmni jadal rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga qo'llanilishiga muvofiq, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini oshirish, turizm infratuzilmasini, shu jumladan, turizm infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan.

**Xulosa.** Keltirilgan tahliliy raqamlardan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda Konsepsiyani amalga oshirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Turizm sohasida qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan maqsad va ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, kelgusi yillarda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish rejalashtirilgan:

1) turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm industriyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro normalar va standartlarni joriy etish, shu jumladan:

- turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, qonunchilik bazasini mustahkamlash, turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash normalarini yagona hujjatga birlashtirish;

- Respublikaga turistlarning asosiy oqimini ta'minlovchi iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlar fuqarolari uchun viza rejimini yanada erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- xususiy sektorni jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohaning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;

- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda turizmni boshqarishning institutsional tuzilmasi jiddiy takomillashtirishni talab qiladi. Turizm sohasida davlat siyosati va davlatning uzoq muddatli strategiyasi belgilab berilganiga qaramay, turizm faoliyatini tarmoqlararo va hududlararo muvofiqlashtirish mavjud emas, turizmni rivojlantirish sohasida xorijiy kreditlar va sarmoyalarni jalb qilish juda passiv, ikki tomonlama bitim va shartnomalar ustidan doimiy monitoring yo'q. Turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmagan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199-farmoni. 2021 yil 6-aprel. //www.lex.uz



2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>

3. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов Культура народов Причерноморья. 2002. №35. С.11-15

4. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Смоленск, 2000. 224 с.

5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]

6. Карпов Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью. СПб., 2011. 268 с. [2.с.135]

7. Королёва Н.В. Имитационное моделирование направлений развития туризма в рекреационных зонах региона. Майкоп, 2007. 164 с.

8. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, с. 45]

9. Ro'ziyev Sh. "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi" J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>

10. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2001. — 208с. Стр. 13

11. Норчаев А. Ўзбекистонда covid-19 пандемиясининг туризмга таъсирини юмшатиш йўллари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, 2020. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/>

12. Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год. <https://www.interfax.ru/>

13. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi